

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA’MINLASH
MASALALARI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya
2024-yil, 15-oktyabr**

**Republic-wide scientific and scientific-technical conference
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN
ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF
PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION
October 15, 2024**

**Республиканскую научно-техническую конференцию на тему
«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА
ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,
которая состоится 15 октября 2024 года**

JIZZAX – 2024

Ikkinchi yo‘l (yoki usul) – majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ular o‘z istaklaricha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarini va juz‘iy san’atlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad–ularni fazilat egasi qilib va san’at ahllariga aylantirishdir

Demak, Forobiy ta‘lim–tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko‘zlaydi.

Xulosa qilib aytganda Forobiy pedagogik ta‘limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya‘ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Insonning kamolga yetishida ham aqli, ham ahloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta‘lim–tarbiya usullari hozirgi ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi bilan diqqatga sazavor bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Forobiy. Fozil odamlar shahri. T: “Yangi asr avlodi”. 2016 y.
2. M.Xayrullayev. Ma’naviyat yulduzlari.-A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti. 2001y.
3. O.Hasanboyeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -T: “O‘qituvchi”. 1993y.
4. Uralova.O.R.Abu Nasr Forobiy-inson ma’naviyatining yetuk tarbiyachisi. Jaxolatga karshi ma’rifat bilan kurashgan buyuk alloma (Abul Muyin Nasafiy) Ilmiy amaliy xalkaro anjuman.Toshkent 2019-yil dekabr.
5. O‘rolova Odina . Abu Nasr Farobiyning ma’naviy axloqiy ta‘limotining pedagogic ahamiyati. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2019/6-son 44-bet.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YANGI O‘ZBEKISTONNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA‘LIM TIZIMINING O‘RNI VA ROLI

Radjapov Kamoladdin Erkayevich

*“International School of Finance Technology and Science” instituti
“Iqtisodiyot va kompyuter injineri” kafedrasi dotsenti iqtisod fanlari nomzodi,*

Bekberganova Rayxon G‘ayrat qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti 2-bosqich magistranti
bekbergenovaraykhon@gmail.com*

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgandan so‘ng bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida amalga oshirilgan institutsional islohotlar va ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari va mexanizmlarini joriy qilishda xalqaro tajribalardan, jumladan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanilganligi ta’kidlanadi. Shuningdek, ta‘lim tizimi, xususan, oliy ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning inson kapitalini rivojlantirishdagi o‘rni keng yoritilgan. Oliy ta‘lim muassasalari va mutaxassis tayyorlash tizimida jahon standartlariga mos keladigan o‘zgarishlar amalga oshirilgani, korrupsiya holatlariga qarshi kurash choralari, shuningdek, “Yangi O‘zbekiston” strategiyasida belgilangan maqsadlar haqida so‘z yuritiladi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish va ta‘lim sifatini oshirish orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi, aholi turmush darajasini yaxshilash va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: bozor iqtisodiyoti, institutsional islohotlar, Yangi Oʻzbekiston, taʼlim tizimi, inson kapitali, oliy taʼlim, kadrlar tayyorlash, barqaror iqtisodiy oʻsish, innovatsiyalar, globallashuv.

Аннотация:

В данной статье анализируются институциональные реформы, осуществленные Республикой Узбекистан в процессе перехода к рыночной экономике после обретения независимости, и их влияние на социально-экономическое развитие страны. В статье подчеркивается, что при внедрении основных принципов и механизмов рыночной экономики был использован международный опыт, в том числе опыт таких развитых стран, как США, Япония, Южная Корея. Также широко освещаются проводимые реформы в системе образования, в частности в сфере высшего образования, и их роль в развитии человеческого капитала. Речь идет о внесении изменений в систему подготовки специалистов и высших учебных заведений в соответствии с мировыми стандартами, мерах по борьбе с коррупцией, а также о целях, определенных стратегией “новый Узбекистан”. Были рассмотрены меры, направленные на устойчивый экономический рост страны, повышение уровня жизни населения и подготовку конкурентоспособных кадров на международном рынке труда путем перехода к рыночной экономике и повышения качества образования.

Ключевые слова: рыночная экономика, институциональные реформы, новый Узбекистан, система образования, человеческий капитал, высшее образование, подготовка кадров, устойчивый экономический рост, инновации, глобализация.

Annotation:

This article analyzes the institutional reforms implemented by the Republic of Uzbekistan in the process of transition to a market economy after independence, and their impact on the socio-economic development of the country. The article emphasizes that when implementing the basic principles and mechanisms of a market economy, international experience was used, including the experience of such developed countries as the United States, Japan, and South Korea. The ongoing reforms in the education system, in particular in the field of higher education, and their role in the development of human capital are also widely highlighted. We are talking about making changes to the system of training specialists and higher education institutions in accordance with international standards, measures to combat corruption, as well as the goals defined by the New Uzbekistan strategy. The measures aimed at sustainable economic growth of the country, improving the standard of living of the population and training competitive personnel in the international labor market through the transition to a market economy and improving the quality of education were considered.

Key words: market economy, institutional reforms, new Uzbekistan, education system, human capital, higher education, personnel training, sustainable economic growth, innovation, globalization.

Mamlakatimiz mustaqillika erishgandan hozirgi davrgacha bozor iqtisodiyotiga institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali oʻtilmoqda. Butun jahon xoʻjaligida globallashuv chuqurlashayotgan sharoitda Oʻzbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga oʻtishning Oʻzbek modelining ishlab chiqilishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda institutsional islohotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bozor iqtisodiyotining tamoyillari, qonun-qoidalari va mexanizmlarini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy saholariga tadbiq qilishda, jahon hamjamiyatida rivojlangan va tez rivojlanish yoʻlidan borayotgan AQSH, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya, Yevropa mamlakatlari tarjibalaridan foydalanib, anʼana va qadriyatlarimizni hisobga olib bozor munosabatlariga oʻtish shakllandi va rivojlanmoqda. Shuningdek, davlatning bozor iqtisodiyotiga oʻtish jarayonida institutsional islohotlarni amalga oshirishda boshchiligi, iqtisodiyotni mustahkamlash va siyosiy munosabatlarni olib borilishi, barcha saho va tarmoqlarni rivojlantirishdagi qonun ustivorligini taʼminlanganligi, mamlakatimiz kuchli ijtimoiy himoyalash

tizimini yaratilishi orqali bozorga bosqichma-bosqich o'tilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillini mustahkamlash, aholining farovon turmush madaniyatli hayot tarzini va kuchli demokratik ijtimoiy davlatchilikdan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdek umummaqsadning amalga oshirilish jarayonlari ilmiy asoslangan, innovatsion fan-texnika yutuqlarini tadbiq etish, Yangi O'zbekistonni shakllantirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishini ifodalamoqda. Buning uchun mamlakatda oliy va undan keyingi yuqori malakali mutahassislarni tayyorlash ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada salmoqli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sahosisda davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 sonli qarori, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2022 yildagi PF-60-sonli Farmonida, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturini belgilangan vazifalarni, "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmonida 5ta utuvor yonalish doirasida 100ta maqsadni amalga oshirishda: barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash kabi g'oyalarni hamda 100ta maqsadni amalga oshirishda ta'lim tizimini isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

Institutsional islohotlar sharoitida iqtisodiyotning barcha sahova tarmoqlarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash O'zbekiston ijtimoiy va dunyoiy davlat maqomini olishiga, shu jumladan maktab ta'limida 175 ming yangi va maktabgacha ta'lim qamrovi qo'shimcha 5500 o'ringa, hamda 470 Nodavlat uumta'lim tashkilotlari ochilishi, oliy ta'lim muassasalari 220tadan, o'rta mahsus ta'lim muassasalari 70taga ko'payganligi, oliy ta'limdan keying yuqori mutahassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashda "korxona-oliygoh-ilmiy tashkilot" klaster tizimi tashkil qilindi. Ta'limga e'tibor kelajakga, fanga innovatsion texnologiyalarni joriy etish kadrlar tayyorlash tizimining rivojlantirishga hamda inson kapitalining sifat ko'rsatkichlari yuqori pog'anaga ko'tarilishi va jahon hamjamiyatida kadrlaro raqobatga kirisha oladigan salohiyatni shakllanishiga xizmat qiladi. Jahon va mamlakat mehnat bozori talablari yagona standartga keltirilishi oliy ta'limga kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish ma'suliyatini oshirmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keying yuqori mutahassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashda tizimi qabul kvotalarini soni bozor iqtisodiyoti talablariga moslab shakllatirilishi, qabul jarayonini tashkil qilish yagona interaktiv davlat xizmatlari, my.gov.uz hukumat portal orqali raqamlashtirilgan tizimning joriy etilishi, qabul kvotalaridan tashqari har bir oliygoh imkoniyatlaridan kelib chiqib qo'shimcha qabulning amalga oshilishida yo'nalishlarning eng kam ballni olishi va shunga mos tabaqalashgan to'lov-shatnoma summasi belgilanganligi korrupsiyani batamom tizimdan tugatilishiga erishildi. Qabul kvotalari davlat buyurtmasi (grant) parametrlari: bakalavr kunduzgi ta'lim iakliga 34838 nafar, magistratura mutahassislarni tayyorlashga 9365 nafar qilib belgilandi. Prezident farmoyishi bilan tasdiqlangan joriy yilgi votalarning o'tgan yillarga nisbatan bir qancha farqlarini ajratib ko'rsatilgan: kvotalar OTMlar kesimida emas, yo'nalishlar kesimida; kvotalar davlat granti uchun e'lon qilindi; kvotalar faqat kunduzgi ta'lim shakli uchun amal qilishi ajratib ko'rsatilgan. Oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillikni bosqichma-

bosqich berilishi, oliy ta'lim tizimida institutsional islohotlarning yangi bosqichi davomiyligini, hamda oliy ta'limda xususiy mulkning shakllanishi raqobat muhitini yuzaga chiqardi. Shuningdek tizimdagi institutsional islohotlar izchilligi globallashuv chuqurlashish jarayonlarining yangi bosqichini ifodalamoqda. Kadrlar tayyorlash jarayonlarining erkinlashishi, xo'jalik moliyaviy mustaqilligini va jahon standartlari asosida oliy va oliy ta'limdan keyingi mutahassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash mexanizmlari va yo'nalishlarini tubdan isloh qilinyotganligini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz va jahon mehnat bozorida har tamonlama mustahkam bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan kadrlarni salmoqini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta'limga rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida qo'llanilayotgan hemis ta'lim tizimining o'rganilishi, qisqa davrda Yangi O'zbekistonni shakllantirish va rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqilganligi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qo'llanilishi, oliy ta'limning davlat standartlarini, no'rma va asosiy qoidalarini jahon standartlariga moslashayotganligini belgilab bermoqa. Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonida yangi interfaol usullar va pedagogik yondashuvlarning joriy qilinishi inson kapitalini rivojlantirishga, hamda bakalavriyat yonalishi va magist mutahassislarini ilmiy bilish, idrok etish, tasavvur etish, kreativlik va kasbiy ko'nikma shakllangan shaxslar tayyorlanayotganligini ifoda etmoqda. Mamlakat mustaqilligining hozirgi davrida uchunchi renesans avlodlarini ta'lim va tarbiy uyg'uligini ta'minlagan holda milliy an'analar va kadriyatlarni e'tiborga olib, institutsional islohotlarni chuqurlashuvi institutsional muhitni yangi pog'onaga olib chiqmoqda. Bunday natijaga erishishda oliy ta'lim tizimida mustahkam bazis va ustqumaning bunyod etilganligini namoyon qilmoqda. Jumladan oliy ta'lim sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun va qonun osti hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi tizimni yangi bosqichga olib chiqdi. Oliy ta'limda davlat, xususiy va davlat sherekchiligi asosida 220ga yaqin oliy ta'lim muassasalarining shakllanishi, sohada yangi yonalish va mutahassislarni tayyorlash imkoniyatini shakllantirdi. 1991 yilda mamlakatda bitta universitet va 25 taga yaqin institut bolib, 150 ta mutahassislik bo'yicha 120 mingtagacha qabul kvotalari bajarilgan. 1992 yildan oliy ta'lim muassasalari 59 tani 200 ga yaqin mutaxassislikda 200 mingga yaqin talaba tahsil olgan bo'lib, ularga 2,8 ming fan doktori, 16,1 ming fan namzodi ta'lim bergan, sohada 46 ming kishi band bo'lgan. 2016 yilga kelib oliy talimda bakalavr va magistrlar tayyorlashning Evropa tizimi joriy etilib, 76 ta oliy ta'lim muassasalarida 850 yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha 300 mingdan oshiq talaba tahsil olgan. Bundan tashqari, 14 ilmiy-tadqiqot laboratoriya tashkil qilingan, 296 tasi qayta jihozlangan bo'lib, davlat buyudjetidan 277 milliard so'm sarflangan. Shuningdek, turdosh mutaxassislar qo'shib yuborilgan, ijtimoiy sohada ehtiyoj qolmagan deb hisoblab, bakalavr yo'nalishlari 228 tadan 165 taga, magistratura mutaxassislari 1200 tadan 500 taga kamaytirilgan. 2023 yilga kelib oliy ta'lim muassasalari 65 ta davlat, 50 ta davlat sherikchilik va qo'shma dasturlari negizida, 10-15 ta horijiy, 100 taga yaqin NTMLari faoliyat yurgizib, bakalavr yo'nalishlari soni 139 tadan 195 taga, magistratura mutaxassislari 1145 tadan 1395 tagacha ko'payib, tahsil olayotgan talabalar 1mln. 300 mingtani tashkil qilib, ilmiy salohiyat 40%ga o'sganligini namoyon qilmoqda. Mamlakatda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan institutsional islohotlarning natijasi hisoblanadi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti talablariga har tamonlama chuqur bilim va ko'nikmaga ega, ilmiy salohiyatli jahon mehnat bozorida xorijiy davlatlar kadrlari bilan keskin raqobatlasha oladigan, xalqaro standartlar talablari darajasidagi ilmiy salohiyatga va amaliy tajribali kadrlar tayyorlash tizimini ifodalamoqda. Shuning uchun global munosabatlar rivojlanayotgan sharoitda mamlakat oliy ta'lim tizimida sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Buning uchun davlat va NTM oliy muassasalari moddiy texnika bazalarini xalqaro va milliy standartlarga mosligini doimiy monitoringgini olib borish;amalda joriy qilingan institutsional norma va asosiy qoidalar bajarilishini baholash;har bir o'quv semestri yakunida talabalar bilim va ko'nikmalarini baholashni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda tayyorlanadigan yuqori malakali zamonaviy ilmiy bilim va amaliy ko'nikmaga ega kadrlarning ijtimoiy-iqtisodiy saholarda raqobat muhitini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'limning sifati oshganligini,bu tovar ishlab chiqarish va

xizmatlarni sifat ko'rsatkichlariga, eksport salohiyatini oshirib, YAIMni barqaror iqtisodiy o'sishini davomiyligini ta'minlab, aholining jahondagi o'rtacha yashash mayorlarga etkazilishiga xizmat qiladi. Institutsional islohotlarni davomiyligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaganligi, aholi jon boshiga tushadigan daromadni 1992 yilga nisbatan hisoblaganda 2023 yilga kelib 20-25 barobarga o'sganligini, ijtimoiy jihatdan mamlakat fuqarolarining farovon turmush madaniyatini shakllanganligidan dalolat bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni.Toshkent - 2022 y.<https://nrm.uz>
2. Mirziyoev SH.M. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmoni.Toshkent- 2023 y. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 sonli Qarori.Toshkent-2023y. <https://lex.uz>

Internet saytlari:

4. <https://sputniknews.uz>
5. <https://opt.uz>
6. <https://gov.uz>
7. <https://advice.uz>

JIZZAX VILOYATI MAHALLALARIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY MASALALAR: OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MAHALLA HAMKORLIK ALOQALARI

Qosimov Azimjon Sanaqul o'g'li

Maktab menejmenti kafedrası o'qituvchisi, Jizzax DPU

Annotatsiya:

Jizzax viloyati mahallalarida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda oliy ta'lim muassasalari va mahalla hamkorlik aloqalarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Oliy ta'lim muassasalari va mahallalar o'rtasidagi hamkorlik aloqalari mahallalardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash, ularni samarali hal etish uchun kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish orqali aholini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Maqolada mazkur hamkorlik aloqalarining turli yo'nalishlari, amaliy natijalari va istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ushbu hamkorlikni rivojlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish hamda bandlikni ta'minlashga oid tavsiyalar beriladi. Maqolada oliy ta'lim muassasalari va mahalla fuqarolar yig'inlari o'rtasidagi hamkorlikning muhim jihatlari, xususan, ta'lim va tadqiqotlarni real hayotdagi amaliy muammolar bilan bog'lash zarurati ta'kidlanadi.

Abstract:

This text discusses the role of cooperation between higher education institutions and communities in solving socio-economic issues in the Jizzakh region. It explores how the resources of higher education can help develop socio-economic support mechanisms in communities, including the preparation of personnel and the implementation of scientific products to support the population. The article also discusses various areas of cooperation and practical outcomes, providing recommendations for improving the welfare of the population, ensuring employment, and providing economic assistance to develop production. Additionally, it emphasizes the importance of linking education and supervision with practical issues in real life.